

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTUI**

**“TASDIQLAYMAN”
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti rektori**

O. SH. Bazarov

“ ” 2022 yil

BUXGALTERIYA HISOBI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000	- Biznes, boshqaruv va huquq
Ta‘lim sohasi:	410000	- Biznes va boshqaruv
Ta‘lim yo‘nalishi:	60410500	- Bank ishi va auditi

Qarshi – 2022

Fan/modul kodi ACC1109	O'quv yili 2022-2023	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 4 (8)	
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Buxgalteriya hisobi	120	150	270

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga moliyaviy va boshqaruv hisobining ob'ektlari, ya'ni xo'jalik mablag'lari va ularning kelib chiqish manbalari, ularning xo'jalik yuritish jarayonidagi harakati, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va umumlashtirish, korxonalar (tashkilot, muassasa)larning mulkiy, moliyaviy faoliyati va ular to'g'risidagi to'liq ishonarli ma'lumotlarni shakllantirish hamda taqdim etish, buxgalteriya hisobini tashkil qilish, uning me'yoriy huquqiy asoslari bo'yicha yo'nalishiga mos bilim, ko'nikma va malakasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi mablag'lar, ularning tashkil topish manbalarining harakatini to'g'ri aks ettirish, hisobotlarni tuzish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini realligini ta'minlash, boshqa tashkilotlar bilan hisoblashishlarni to'g'ri tashkil qilishni davlatimiz qonunlari, hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlar asosida o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

BUXGALTERIYA HISOBI (1 MODUL). BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASINING UMUMIY ASOSLARI

1-mavzu. "Buxgalteriya hisobi" faniga kirish

Buxgalteriya hisobining tavsiflanishi. Buxgalteriya hisobining rivojlanish tarixi. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy shakllari va faoliyat turlari.

Buxgalteriya hisobi fanining predmeti, boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va tadqiqot usullari. va boshqaruv hisobining sub'ektlari va ob'ektlari. Xo'jalik hisobi to'g'risida umumiy tushuncha va unga qo'yiladigan talablar. Xo'jalik hisobining turlari: tezkor (operativ), statistik va buxgalteriya hisobi. Hisob turlarida qo'llaniladigan o'lchov birliklari. Xo'jalik hisobi tizimining yaxlitligi.

2-mavzu. Buxgalteriya balansi

"Balans" tushunchasi va uning iqtisodiy ahamiyati. Buxgalteriya balansining tuzilishi va mazmuni. Xo'jalik mablag'lari haqida tushuncha. Xo'jalik mablag'larini turiga, joylashishiga va tarkibiga ko'ra turkumlash. Uzoq muddatli va joriy mablag'lar. Xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalari to'g'risida tushuncha.